



UDK: 338:91(485.54)

Zulayxo IBRAGIMOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: zulaykho_ibragimova@mail.ru

Andijon davlat universiteti dotsenti v.b.PhD Z.Temirov taqrizi asosida

SCIENTIFIC AND THEORETICAL AND RELIGIOUS ASPECTS OF THE PROCESS OF MARRIAGE AND DIVORCE IN THE FAMILY

Annotation

The demographic status of the family, the scientific and theoretical aspects of the marriage and divorce process are studied in the article. At the same time, the role of the family in religious relations is highlighted.

Key words: marriage, divorce, family, demography, sociology, Christianity, demographic characteristics, Judaism, Aguna, Hinduism.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И РЕЛИГИОЗНЫЕ АСПЕКТЫ ПРОЦЕССА БРАЧА И РАЗВОДА В СЕМЬЕ

Аннотация

В статье исследуется демографический статус семьи, научно-теоретические аспекты брачно-разводного процесса. При этом выделяется роль семьи в религиозных отношениях.

Ключевые слова: брак, развод, семья, демография, социология, христианство, демографические характеристики, иудаизм, агуна, индуизм.

OILADA NIKOH VA AJRALISH JARAYONINING ILMIY-NAZARIY HAMDA DINIY JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada oilaning demografik holati, nikoh va ajralish jarayonining ilmiy-nazariy jihatlari o'rganilgan. Shu bilan birga diniy munosabatlarda oilaning o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nikoh, ajralish, oila, demografiya, sotsiologiya, nasroniylik, demogeografik xususiyat, yahudiylik, aguna, hinduiylik.

Kirish. Nikoh, oila, ajralish – sotsiologiya va huquq sohasining asosiy tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiy etishi bilan aholi sonining keskin ortishi natijasida demografiya fanining ham tadqiqotiga aylandi.

Uzoq vaqt davomida tartibga solinmagan tug'ilish sharoitida nikohlar sonining o'zgarishi aholi o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda kichik oila iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda asosiy oila turiga aylanib borayotgan bir paytda, nikoh va oilaning shakllanishi aholi o'sishining muhim omillari hisoblanadi. Shuningdek, oilaning demografik rivojlanishida yangi xususiyatlar paydo bo'ldi. Nikoh jarayonining asosiy aks ta'siri bu ajralish sanaladi. Bunda oilaning tugatilishi va nikohning bekor qilinishi bilan ifodalanadi. Davlat ahamiyatiga molik qismi esa ajralish jarayoni ham doimiy holatda hisobga olib boriladi.

Tug'ilish va aholining tabiiy o'sishiga nikoh va oilaning o'rni ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Oilaning rivojlanishi, uning tuzilishi, funksiyalarining o'zgarishi, aholining takror barpo bo'lishdagi o'rni tadqiqotchilar e'tiborini tobora tortib bormoqda. Oilaviy hayotning farzandli bo'lgungacha va undan keyingi holatda ajralishlar kuzatiladi. Nikohning beqarorligi va uning potentsial buzilishi qay darajada er-xotinni farzand ko'rishini cheklashga undashi mumkin yoki aksincha, nikohning farzandsizligi uning tugatilishiga sabab bo'ladi. Muvaffaqiyatsiz nikoh buzilganidan keyin oila tiklanishi qiyin hisoblanadi, ba'zi bir holatlardagina tiklanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oila tuzumi va tuzilishini tadqiq qilishda R.Merton, T.Parsons, P.Sorokinlarning tadqiqotlari ahamiyatli hisoblanadi. Ularning tadqiqotida oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda turmush o'rtoqlarning rolini natijasida ajralishga sabab bo'luvchi omillar ochib berilgan.[5]

Rus sotsiolog va demograflari A. Vishnevskiy, S. Volfson, S. Groman, L. Karsavin, S. Nikolskiy, B. Sinelnikov, A. Xarchevlarning ilmiy izlanishlarida ajralishga sabab bo'luvchi urbanizatsiya, migratsiya jarayonlari, oila muhitini buzilishi, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni ko'paytirish omillar sifatida o'rganilgan.

G. Blumer, I. Xoffman va J. Med oilani sotsiologik-psixologik o'rganish davomida Oilaning interaksionizm kontseptsiyasini yaratib,[5] oilaning shakllanishida ta'sir etuvchi shaxslarning xarakteri, hayotiy tajribasi, qadriyatlarining mos kelmasligi nuqtai nazaridan ajralishning sabablari va oqibatlari hamda ota-onalarining aralashuvini qonuniy asoslab bergan.

Oila va uning shakllanishida iqtisodchi olimlarning ham qarashlari mavjud. J. Homans fikricha ajralish oilaning moddiy va nomoddiy qadriyatlaridan norozilikda namoyon bo'ladigan er-xotinlar o'rtasidagi assimetrik o'zaro munosabatlarning natijasi hisoblanadi.

Shuningdek G.Bekker, J. Minker, T. Shuls asarlarida ajralishni "oilaviy kapital" kontekstida ko'rib chiqadi, oilaviy resurslarning to'planishini, uning imkoniyatlarini oilaviy hayot siklining muayyan bosqichlarida avlodlararo o'tkazish nuqtai nazaridan belgilash deb aytib o'tadi.

B.Xubiev, V.Tseluiko g'oyalarga ko'ra oilaviy nizolarda ajralishlar hajmini belgilovchi omil sifatida individual omil (er-xotinning ijtimoiy xulq-atvori) aniqlanadi va tahlil qilinadi.[5]

Tender yondashuvi vakillari Yu. Doynikova, O. Zdravomyslova, A. Rotkirch, A. Temkinalarning ilmiy ishlarida ajralishlar sonining ko'payishi erkak va ayol qadriyatlarini tizimidagi nomutanosiblik va qarama-qarshiliklar bilan bog'liq ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Gorshkova, E. Zdravomyslova, M. Malysheva, I. Rimashevskayalar esa oilaviy munosabatlarda sobiq turmush o'rtoqlarning o'zini o'zi qadrlashini, mavqeyini yuqori qo'yishini ajrim holatlariga sabab qilib ko'rsatadi.

Ajralishning ijtimoiy-demografik tahlili B.Breev, V.Vishnevskiy, S.Golod, V.Elizarov, S.Zaxarov, A.Sinelnikov, A.Xarchevlarning asarlariga asoslanadi. Ajralish darajasiga ta'sir etuvchi omillarni yosh nuqtai nazaridan mazmunli tavsiflashga alohida e'tibor beriladi.

O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning hududiy tafovutlari haqida XX asrning 50-60 yillaridan boshlab M.Qoraxonov ilmiy maktabida shakllantirilgan. Aynan oila munosabatlarining demogeografik xususiyatlari M.R.Bo'riyevaning ilmiy ishlarida aks ettirilgan. M.Bo'riyevaning tadqiqoticha oilani vazifalariga ko'ra 3 ta guruhga bo'lib o'rganilgan.[3] Bular oilaning demografik, ijtimoiy, iqtisodiy vazifalari bo'lib, oilada farzandlarning tug'ilishi, ularni tarbiyalash va moddiy ehtiyojini qondirish bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mutlaq nikohsizlik darajasi odatda aholining 50 yoshgacha bo'lgan va hech qachon nikohda bo'lmagan ayol va erkaklar soni bilan tavsiflanadi. Bu ko'rsatkich tadqiqot olib borilayotgan avlodlarning qancha qismi nikohga kirmaganligini ko'rsatadi.

1-jadval

Mutlaq nikohsizlik darajasi mezon

Mutloq nikohsizlik ko'rsatkichi, %	Nikohsizlik darajasi
5 dan kam	past
5-9	o'rtacha
10 va undan yuqori	yuqori

Bugungi kunda O'zbekistonda aholining mutloq nikohsizlik darajasi past hisoblanadi, ya'ni 5.0 foizdan kamni tashkil etadi. Aholi ro'yxati ma'lumotlaridan olingan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, turli yoshdagi ayollar (real avlod) orasida mutloq nikohsizlik darajasi faqat urush yillari va undan keyingi nikoh bozorining deformatsiyasi davridagina yuqori bo'lgan.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Oila jamiyatni tashkil etuvchi eng kichik bo'g'in hisoblanadi. Nikoh esa asrlar davomida barcha dinlar va jamiyatlar tomonidan muqaddaslashtirilib, oilaning shakllanishiga imkon beruvchi birlik sanaladi. Nasroniylar uchun nikoh asosiy e'tiqod rishtasi bo'lib, ularning cherkov bilan bog'langan jarayoni hisoblanadi. Katolik mazhabida erkak va ayol nikohdan o'tar ekan, Allohga yaqinligi va ishonchining kuchliligi bilan e'tiqod qiladi. Bu nikohning daxlsizligini "Allohnin sevgisi uni o'lim ajratguncha bo'lishi, Masih va jamoatning birligini ifodalashi hamda to'y paytida muqaddas ruh ta'sirida bo'lishi"ni ifodalaydi. Agar bu juftlik ajrashsa, nikoh va nikohga tegishli bo'lgan muqaddaslikni butunlay yo'q qiladi. Bu esa nikohni bekor qilish, ajralish jarayoni sifatida tadqiq etiladi.

Musulmon madaniyatida nikoh munosabatlari nasroniy dinidan tubdan farq qiladi. Islomda oilani mustahkamlashga katta e'tibor beriladi. Dinimiz ta'limotining asosi bo'lmish Qur'on Karimda oila va unga oid masalalar juda keng va batafsil bayon qilingan. Jumladan, kimlar nikohlanish mumkin, kimlarga mumkin emasligidan tortib, oila qurilgach unga kim rahbarlik qilishi, er va xotinining haq - huquq va burchlari, oilada dunyoga keladigan farzandlar tarbiyasi, otaning ona va bola ta'minotiga e'tiborli bo'lish masalasi, hatto er-xotin o'rtasida chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni qay tarzda hal qilish, ularni yarashtirish uchun har ikki tomondan adolatli hakamlarni jalb etish, boringki, agar er-xotin ajralishga majbur bo'lgan holda qay tarzda ajrim qilish holatigacha batafsil bayon qilib berilgan.

Islom olamida oilaviy rishtalarni uzish huquqi faqat erkak kishiga tegishli. Nikohni buzish uchun erkak uch marta "ajralish" ya'ni "taloq" so'zini aytishi kifoya. Ayol esa, sudga murojaat qilishi mumkin, buning uchun esa asosli sabablar bo'lishi lozim. Islomda zinokorlik, nikohdan oldin yashiringan er-xotinlardan birining jismoniy yoki ruhiy nuqsoni bo'lsagina oilada nikoh bekor qilinishi mumkin. So'z bilan ajralish huquqi erkakka berilishining sababi, ayol o'zining hissiyligi tufayli bunday muammolarni juda shoshilinch va o'ylamasdan hal qilishi mumkin. Bundan tashqari oilaviy hayotda va ajralish jarayonida barcha moddiy javobgarlik erkakning zimmasida bo'ladi.

Yahudiylarning oilaviy hayot tamoyillari qadim zamonlardan beri ularning muqaddas matnlarida bayon etilgan. Nikohda erkak va ayolning huquqlari aks etgan "Nikoh shartnomasi" g'oyasi yahudiy oilasida paydo bo'lgan. Eramizning boshlarida er-xotin turmush qurayotganda hamma erkak o'z ayoliga Ketuba (nikoh shartnomasi) degan hujjatni berishga majbur bo'lgan. Unda mumkin bo'lgan ajralish holatlarida ayolni moddiy himoya qilish shartlari tasvirlangan hamda ushbu hujjatda moliyaviy majburiyatlardan tashqari oilaviy munosabatlarning barcha boshqa sohalarini ham aniq belgilangan. Hozirgacha ketubani imzolash yahudiy an'analari to'y marosimining muhim qismidir. Ketuba er va xotin o'rtasidagi munosabatlarni ushlab turadigan eng muhim hujjatlardan biridir. Agar u yo'qolsa, qayta tiklanmaguncha munosabatlarni davom ettirishga ruxsat berilmagan. Nikoh buzilganda er ayolga ajralish xatini berishi kerak. Har qanday sababga ko'ra ajralish xatisiz qolgan ayol yangi turmush qurishga haqli emas. Erlari g'oyib bo'lgan va ularning o'limini isbotlab bo'lmaydigan ayollar "ersiz xotin" - Aguna deyiladi. Aguna yosh va oila qurishga qodir bo'lsa ham, uning barcha yangi nikoh munosabatlari zino hisoblanib, bunday nikohda tug'ilgan bolalar ham qonuniy hisoblanmaydi.

Hinduizm an'analari bilan boshqariladigan jamiyatda ayollarning mavqei juda zaif. Shuning uchun, xotin uchun yagona himoya uning o'z eri bo'lishi mumkin. Bundan erkakning oiladagi mavqei va ayolning ko'proq qaramligi kelib chiqadi. Hinduizmnin an'analari ayolni nikoh va eriga (hatto marhumga) sodiqlik bilan bog'liq juda qattiq doiraga o'raydi. Faqat birinchi nikoh qimmatli hisoblanadi. Ehtimol, shuning uchun ham ushbu dinda ajralish holati uzoq vaqt davomida umuman tan olinmagan. Jamiyatda oilani buzilishining eng jiddiy sabablari turmush o'rtoqlardan birining jismoniy nogironligi, bolalar tug'ilishiga to'sqinlik qilishi bilan bog'liq. Hinduizmnin urf-odatlariga rioya qilgan holda, 8 yil davomida farzandli bo'lmasa, 10 yil davomida o'lik tug'ilishlar va bepustlik kuzatilsa, oilada 11 yil davomida faqat qiz farzand tug'lsa nikohni buzishga ruxsat berilgan.

Shu bilan birga eriga nisbatan hurmatsizlik ajralish uchun yaxshi sabab bo'la oladi hamda qo'pollik qilgan ayol ham eng og'ir gunohga qo'l urgan bo'ladi. Bunda beva qolgan ayol jamiyatda va oilada o'z o'rniga ega bo'lmaydi. Hinduizm "sati" marosimi (erining dafn etish)da xotinning o'zini-o'zi yoqib yuborish holati mavjud. Hindistonda zargarlik buyumlarini kiyish taqiqlangan ayollarning yagona toifasi beva ayollardir. Boshqa barcha ayollar zargarlik buyumlarini taqishlari kerak bo'ladi, shu

tartibda ular o'zlarining farovonlik darajasini ko'rsatadi. Ba'zi holatlarda beva ayol turmush qurishga qaror qilsa, unda to'y marosimi hech qanday dabdabasiz o'tkaziladi. Beva ayolning qayta turmush qurishidan tug'ilgan bolalar esa ba'zi huquqlardan cheklanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda oilani shakllantirish unga ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va demografik omillar yoritildi. Shu bilan birga dunyo dinlarida nikoh va ajralishning o'ziga xos xususiyatlari aks ettirildi. Aholining nikohga kirishi va uni bekor qilishi jarayonlari ilmiy-nazariy va diniy sabablarga ko'ra tadqiq etildi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Q., Abduramanov X. "Demografiya" Toshkent 2011y. 108-b
2. Бадрызлова М. Развод как атрибут брака: опыт социологического исследования Уралского села. Екатеринбург. 2018.
3. Бурова С.Н. Социология брака и семье. Минск. 2010.
4. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Тошкент.2011.
5. Волкова А.Г.Дарского Л.Е. Развод демографический аспект. М.:1979
6. Киреева С.А. Развод в пожилой семье: социолно-демографический контекст. Диссертация кон.наук. Саратов 2014.